

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdagi etikaga oid tavsiyalar	Recommendations for ethics in the use of artificial intelligence technologies
I. Umumiy qoidalar	I. General Provisions
<p>I. Mazkur tavsiyalar sun'iy intellekt texnologiyalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish, joriy etish, tartibga solish va ulardan foydalanish masalalarini ko'rib chiqadi.</p>	<p>These recommendations address the issues of developing, implementing, regulating, and using artificial intelligence technologies within the territory of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>II. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi hududida sun'iy intellektga asoslangan tizimlarini ishlab chiquvchi, joriy etuvchi, tartibga soluvchi va ulardan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga tavsiya sifatida tatbiq etiladi.</p>	<p>II. This document is applied as a set of recommendations to natural and legal persons who develop, implement, regulate, or use artificial intelligence-based systems within the territory of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>III. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdagi etikaga oid tavsiyalar quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> qonuniylik; shaxs, jamiyat va davlat va atrof tabiiy muhit manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi; tushunarlilik; sun'iy intellekt tizimlarining doimo inson nazorati ostida bo'lishi; mutanosiblik; mas'uliyat va javobgarlik; adolatlilik va kamsitishga yo'l qo'ymaslik; ochiqlik va shaffoflik; ma'lumotlar himoyasi; ishonchlilik va xavfsizlik; xabardorlik va savodxonlik. 	<p>III. Ethical recommendations for the use of artificial intelligence technologies in Uzbekistan include the following principles:</p> <ul style="list-style-type: none"> legality; priority of protecting the interests of the individual, society, the state, and the natural environment; comprehensibility; constant human oversight of AI systems; proportionality; responsibility and accountability; fairness and non-discrimination; openness and transparency; data protection; reliability and safety; awareness and literacy.
<p>1. Qonuniylik tamoyili Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish, tartibga solish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi hamda bajarilishi shart.</p>	<p>1. Principle of Legality In developing, implementing, regulating, and using artificial intelligence systems, compliance with and adherence to the applicable laws and regulations of the Republic of Uzbekistan are mandatory.</p>

<p>O‘zbekistonda sun’iy intellekt tizimlari eng avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlashga xizmat qilishi kerak. Har qanday sun’iy intellekt tizimi O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat, ma’muriy va boshqa sohalardagi normativ hujjatlar doirasida amal qilishi lozim.</p> <p>Sun’iy intellekt tizimlarining qonuniyligi nafaqat milliy qonunchilikka, balki O‘zbekiston tomonidan tan olingan xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va tamoyillar bilan uyg‘unlikda ta’minlanishi kerak. Xususan, inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro hujjatlar, axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni himoyalash, muhandislik xavfsizligi va ekologik barqarorlik sohalarida xalqaro amaliyotlar inobatga olinadi.</p>	<p>In Uzbekistan, artificial intelligence systems must primarily serve to ensure the protection of human rights and freedoms, as well as the inviolability of personal privacy. Any AI system must operate within the framework of the constitutional, civil, criminal, administrative, and other normative legal acts of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>The legality of AI systems must be ensured not only in accordance with national legislation but also in harmony with international treaties, conventions, and principles recognized by Uzbekistan. In particular, international instruments on human rights protection, as well as global practices in information security, data protection, engineering safety, and environmental sustainability, should be taken into account.</p>
<p>2. Shaxs, jamiyat, davlat va atrof tabiiy muhit manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi tamoyili</p> <p>Sun’iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish, tartibga solish va ulardan foydalanish inson huquqlari va erkinliklari, shaxsiy hayot daxlsizligi, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish tamoyillariga asoslangan bo‘lishi zarur. Har qanday texnologik yechim yoki algoritmik qarorlar jamiyatda ijtimoiy adolat, xavfsizlik va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.</p> <p>Sun’iy intellekt tizimlari davlat va jamoat xavfsizligiga, ijtimoiy barqarorlikka hamda demokratik institutlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi zarur.</p>	<p>2. Principle of Priority of Protecting the Interests of the Individual, Society, the State, and the Natural Environment</p> <p>The development, implementation, regulation, and use of artificial intelligence systems must be based on the principles of protecting human rights and freedoms, personal privacy, as well as the life, health, honor, and dignity of citizens. Any technological solution or algorithmic decision should contribute to strengthening social justice, safety, and trust within society.</p> <p>AI systems must not have a negative impact on state and public security, social stability, or democratic institutions.</p> <p>Artificial intelligence systems should not disrupt environmental sustainability, lead to excessive use of natural resources, or increase waste generation. When collecting, analyzing, or</p>

<p>Sun'iy intellekt tizimlari ekologik barqarorlikni buzmasligi, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanishga yoki chiqindilarni ko'paytirishga olib kelmasligi kerak. Sun'iy intellekt tizimlari orqali ma'lumot yig'ish, tahlil qilish yoki qaror qabul qilishda shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlashda maxfiylik va axborot xavfsizligi bo'yicha amaldagi qonunchilik normalariga qat'iy amal qilinadi.</p>	<p>making decisions based on data through AI systems, strict compliance with existing legal norms on privacy and information security in handling personal data must be ensured.</p>
<p>3. Tushunarlilik tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlar yoki amalga oshirilgan harakatlar foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishi zarur. Bunda, sun'iy intellekt tizimlarining ishlash mantig'i, asosiy algoritmik mezonlari, qaror qabul qilish jarayonlari va ma'lumot manbalari imkon qadar ochiq va izohlanadigan shaklda taqdim etilishi kerak.</p> <p>Tushunarlilik nafaqat texnik mutaxassislar, balki oddiy foydalanuvchilar uchun ham ta'minlanishi zarur. sun'iy intellektdan foydalanuvchi shaxslar o'zlariga nisbatan qabul qilingan qarorning mohiyatini anglab yetishlari va uning oqibatlarini tushunishlari kerak. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, bank-moliya yoki sud tizimida qo'llanilayotgan sun'iy intellekt qarorlari alohida aniqlik va izohga ega bo'lishi zarur.</p> <p>Sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan noto'g'ri, noxolis yoki asossiz qarorlarga nisbatan insonlar e'tiroz bildirishlari va ushbu qarorlarni qayta ko'rib chiqishni so'rab tegishli idoralarga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.</p>	<p>3. Principle of Comprehensibility (Transparency and Explainability)</p> <p>Decisions made or actions performed by artificial intelligence systems must be understandable to users. The logic of operation, core algorithmic criteria, decision-making processes, and data sources of AI systems should, as much as possible, be presented in an open and explainable manner.</p> <p>Comprehensibility must be ensured not only for technical specialists but also for ordinary users. Individuals affected by AI-based decisions should be able to understand the essence and implications of those decisions. In particular, decisions made by AI in sectors such as education, healthcare, employment, banking and finance, or the judicial system must be especially clear and explainable.</p> <p>People must have the right to object to incorrect, biased, or unjustified decisions made by AI systems and be able to request their review by the relevant authorities.</p>

<p>4. Sun'iy intellekt tizimlarining doimo inson nazorati ostida bo'lishi tamoyili</p> <p>sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilingan barcha qarorlar inson nazorati ostida bo'lishi lozim.</p> <p>Yuqori darajadagi avtomatlashtirish va texnologiyalarning avtonomligi holatida ham sun'iy intellekt tizimlarining inson nazorati ostida bo'lishi sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishda xavfsizlik, adolat va inson huquqlariga hurmatni ta'minlash, shuningdek, texnologiyaga va uning ishonchliligiga ishonchni oshirishga xizmat qilishi lozim.</p>	<p>4. Principle of Constant Human Oversight of Artificial Intelligence Systems</p> <p>All decisions made by artificial intelligence systems must remain under human supervision.</p> <p>Even in cases of high-level automation and technological autonomy, maintaining human oversight over AI systems is essential to ensure safety, fairness, and respect for human rights in the use of artificial intelligence. Continuous human control also serves to strengthen trust in the technology and its reliability.</p>
<p>5. Mutanosiblik tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlari faqat qonuniy va ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan darajada qo'llanilishi lozim, bunda inson huquq va erkinliklariga aralashuv oqilona zarurat doirasidan oshib ketmasligi kerak.</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish va qo'llashda ularning maqsadga muvofiqligi, zaruriyati hamda ta'sir ko'lami har tomonlama baholanishi zarur. Har bir texnologik yechim inson sha'ni, huquqlari va jamiyatdagi adolat tamoyillariga mos kelishi, uning qo'llanilishi ijtimoiy foyda keltirishi zarur. Sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish va qo'llash inson hayoti va erkinligiga ortiqcha xavf tug'dirmasligi kerak.</p>	<p>5. Principle of Proportionality</p> <p>Artificial intelligence systems should be applied only to the extent necessary to achieve lawful and socially significant objectives, ensuring that any interference with human rights and freedoms does not exceed what is reasonably required.</p> <p>When implementing and using AI systems, their purposefulness, necessity, and scope of impact must be thoroughly assessed. Every technological solution must align with the principles of human dignity, rights, and social justice, and its application should bring social benefit. The deployment and use of AI systems must not pose excessive risk to human life or freedom.</p>
<p>6. Mas'uliyat va javobgarlik tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish, tartibga solish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun sun'iy intellekt ishtirokchilari o'z harakatlari doirasida mas'ul va javobgar bo'ladilar.</p>	<p>6. Principle of Responsibility and Accountability</p> <p>Participants involved in the development, implementation, regulation, and use of artificial intelligence systems are responsible and</p>

<p>Har bir ishtirokchi sun'iy intellekt tizimi faoliyati bilan bog'liq xatarlarni oldindan baholashi, xavfsiz va ishonchli mexanizmlarni joriy etishi, shuningdek, noxush oqibatlar yuzaga kelgan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Bu, jumladan, algoritmik xatoliklar, diskriminatsiya, noto'g'ri qarorlar yoki maxfiylik huquqlarining buzilishi kabi holatlarni qamrab oladi.</p> <p>Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlari orqali qabul qilingan har bir muhim qaror uchun inson javobgarligi saqlanishi shart – bu “inson nazorati ostida javobgarlik” tamoyilining ajralmas qismidir.</p> <p>SI tizimining mustaqil faoliyat yuritishi uni yaratuvchi yoki joriy qiluvchini javobgarlikdan ozod etmaydi. Mas'uliyat har bir bosqichda – loyihalash, sinov, joriy etish, ekspluatatsiya va monitoring davomida taqsimlanadi va aniqlashtiriladi.</p>	<p>accountable for the consequences arising from their actions.</p> <p>Each participant must proactively assess the risks associated with AI system activities, implement safe and reliable mechanisms, and take concrete measures to mitigate any adverse outcomes. This includes, but is not limited to, algorithmic errors, discrimination, incorrect decisions, or violations of privacy rights.</p> <p>Moreover, human accountability must be maintained for every significant decision made by AI systems—this is an integral part of the “accountability under human oversight” principle.</p> <p>The autonomous operation of an AI system does not exempt its developer or implementer from responsibility. Accountability is distributed and clarified at every stage—design, testing, implementation, operation, and monitoring.</p>
<p>7. Adolatlilik va kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va ulardan foydalanishda har bir insonning sha'ni va huquqlariga hurmat bilan yondashilishi ta'minlanishi lozim. Sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatda teng imkoniyatlar, inklyuzivlik va ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish, tartibga solish va ulardan foydalanishda insonlarning jinsi, irqi, millati, tili, madaniyati, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy holati, ijtimoiy mavqeyi jihatidan kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.</p>	<p>7. Principle of Fairness and Non-Discrimination</p> <p>The creation and use of artificial intelligence systems must ensure respect for the dignity and rights of every individual. AI technologies should contribute to promoting equal opportunities, inclusiveness, and trust within society.</p> <p>In the development, implementation, regulation, and use of AI systems, no discrimination is allowed based on a person's gender, race, nationality, language, culture, religion, beliefs, social origin, physical condition, or social status.</p>

<p>8. Ochiqlik va shaffoflik tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlari ishlab chiqilishi, joriy etilishi va qo'llanilish jarayonida aniq, tushunarli va izohlanadigan natijalar berishga qaratilgan bo'lishi lozim. Sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanuvchilar qaror yoki tavsiyalar sun'iy intellekt orqali qabul qilinganligini aniq bilishi, uning imkoniyatlari va cheklovlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi lozim.</p> <p>Foydalanuvchilar sun'iy intellekt bilan o'zaro munosabatda bo'layotganliklari to'g'risida ogohlantirilishi lozim. Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiquvchilar zarur xavfsizlik va mualliflik huquqini ta'minlagan holda sun'iy intellekt tizimlari modellarini o'qitish uchun ishlatilgan algoritmlar, ma'lumotlar bazalari, cheklovlar va tarafkashlik yuzasidan shaffof bo'lishi lozim.</p>	<p>8. Principle of Openness and Transparency</p> <p>During the development, implementation, and use of AI systems, they must deliver clear, understandable, and explainable outcomes. Users of AI systems should be clearly informed when a decision or recommendation is made by AI, and they should have sufficient information about its capabilities and limitations.</p> <p>Users must be notified that they are interacting with an AI system. Developers of AI systems should maintain transparency regarding the algorithms, datasets, constraints, and potential biases used to train AI models while ensuring necessary security and intellectual property protection.</p>
<p>9. Ma'lumotlar himoyasi tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda sun'iy intellekt ishtirokchilari qonunchilikka muvofiq shaxsga doir ma'lumotlar va foydalanilishi cheklangan boshqa ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi lozim.</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga zid ravishda ishlov berish taqiqlanadi.</p>	<p>9. Principle of Data Protection</p> <p>Participants in AI system development must ensure the security of personal data and other restricted data in accordance with legislation.</p> <p>It is prohibited to process personal data unlawfully when using AI systems.</p>
<p>10. Ishonchlilik va xavfsizlik tamoyili</p> <p>Sun'iy intellekt tizimlari ularning butun hayotiy sikli davomida ishonchli, xavfsiz va zararsiz bo'lishi lozim. Ular odatiy va murakkab sharoitlarda to'g'ri ishlashi, shuningdek, insonlarga, ma'lumotlarga yoki atrof-muhitga zarar yetkazmasligi lozim.</p>	<p>10. Principle of Reliability and Safety</p> <p>AI systems must remain reliable, safe, and harmless throughout their entire lifecycle. They must operate correctly under normal and complex conditions and must not cause harm to people, data, or the environment.</p>

<p>11. Xabardorlik va savodxonlik tamoyili</p> <p>Har bir inson sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlari, xavflari va ularning ijtimoiy ta'siri haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu ularning ongli qarorlar qabul qilishini, texnologiyalardan mas'uliyat bilan foydalanishini ta'minlaydi.</p> <p>Xabardorlikni oshirish orqali jamiyatda ishonch, ochiqlik va mas'uliyatli innovatsiyalar muhitini rivojlantirishga erishiladi.</p> <p>Davlat fuqarolarning sun'iy intellekt tizimlari bo'yicha savodxonligini oshirish, choralari ko'radi.</p>	<p>11. Principle of Awareness and Literacy</p> <p>Every individual should have sufficient knowledge of the capabilities, risks, and social impacts of AI systems. This ensures informed decision-making and responsible use of technology.</p> <p>Increasing awareness fosters a culture of trust, openness, and responsible innovation in society. The state shall take measures to enhance citizens' literacy regarding artificial intelligence systems.</p>
<p>IV. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanuvchilar va boshqa manfaatdor shaxslarga mazkur tamoyillarga qat'iy rioya qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>IV. In Uzbekistan, users of artificial intelligence technologies and other interested parties are recommended to strictly adhere to these principles.</p>